

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI



O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI FAN DASTURI

Bilim sohasi: 800 000 – Qishloq, o'rmon, baliq ho'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi: 810 000 – Qishloq ho'jaligi

Ta'lim yo'nalishi: 60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va
dastlabki qayta ishlash texnologiyasi (mahsulot
turlari bo'yicha)

QARSHI-2024

“O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI” FANI

Fan (modul) kodi O‘T O‘SQB1204	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Majburiy	Ta‘lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) 60	Mustaqil ta‘lim 60	Jami yuklama 120
O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi			

I. Fanning mazmuni

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani nofilologik oliy o‘quv yurtlari barcha ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha birinchi kursga mo‘ljallangan bo‘lib (1-semestr), egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, madaniy dunyoqarashning zaruriy me‘yori asoslovchi fanlardan biridir.

Mustaqil davlatimizda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilayotganligi barcha mutaxassislarining millatidan qat‘iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Shuningdek, uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlarida, jumladan, oliy o‘quv yurtlarining o‘qish boshqa tilda olib borilayotgan guruhlarda ham o‘zbek tilini o‘rganish yo‘lga qo‘yildi. Shunga ko‘ra, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tilining sohalarida qo‘llanishi kursi o‘qitiladi.

II. Fanning maqsadi:

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarining o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarga soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarining rasmiylashtirilishini ta‘minlash, nutq ustublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. Talabalarining o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish.

III. Ta‘lim berish natijalari :

Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- o'zbek tili imkoniyatlaridan amalda to'g'ri foydalanish kompetentsiyasiga,

- o'zbek tili imkoniyatlaridan amalda to'g'ri foydalanish kompetentsiyasiga,

- o'zbek tilida sohaga oid atamalarini tushunish, ularni mutaxassisligi

mavzusidagi muloqotda mustaqil qo'lay olish jarayonlarining xususiyatlarini bilish

va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- sohaga oid matnlar bilan o'zbek tilida tanishish, matn tuzish, uni tahlil va

tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot

yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, tizimli tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi

kerak.

IV. Ta'lim texnologiyalari va uslublari:

- topshiriqlar asosida amaliy ish;

- jarayonga yo'naltirilgan ta'lim;

- bahs munozara;

- loyihalar ustida ishlash;

- mustaqil o'rganish;

- taqdimot;

- yozma portfolioni tuzish;

- savol-javob subhati;

- rolli o'yinlar;

- amaliy mashg'ulotlar.

1. Mavzu: "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.

Tilning jamiyatda tutgan o'rni. Til va nutq. Til - tafakkur, til va madaniyat munosabati.

2. Mavzu: O'zbek tili - davlat tili.

"Davlat tili" tushunchasi. Davlat tili haqidagi hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati.

3. Mavzu: Til va yozuv.

Yozuv haqida umumiy tushuncha. O'zbek yozuvlari tarixi. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.

4. Mavzu: Til va yozuv masalalari: Grafika va orfoepiya. Harflar imlosi.
O'zbek tilida talaffuz xususiyatlari.

5. O'zbektilining asosiy imlo qoidalari.

Asos va qo'shimchalari imlosi. So'zlarni qo'shib yozish. So'zlarni ajratib yozish.

6. Mavzu: O'zbektilining asosiy imlo qoidalari.

Chiziqcha bilan yozish qoidalari. Bosh harflarni qo'llanish qoidalari.

7. Mavzu: Matnda tinish belgilarining qo'llanish me'yorlari.

Nuqta, so'roq va undov belgilarining qo'llanishi.

8. Mavzu: Matnda tinish belgilarining qo'llanish me'yorlari.

Matnda ikki nuqta, ko'p nuqta, vergul va nuqtali vergulning qo'llanish me'yorlari.

9. Mavzu: Matnda tinish belgilarining qo'llanish me'yorlari.

Matnda tire, qavs va qo'shimoqning qo'llanish me'yorlari.

10. Mavzu: So'zlardagi bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.

So'z - leksikologiyaning o'rganish obyekti sifatida. So'zlardagi bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.

11. Mavzu: So'zlarning shakl munosabatiga ko'ra turlari.

Omonimlar va ularning qo'llanish xususiyatlari. Paronimlar va ularning qo'llanish xususiyatlari.

12. Mavzu: So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Sinonimlar va ularning qo'llanish xususiyatlari. Antonimlar va ularning qo'llanish xususiyatlari.

13. Mavzu: Frazologik birliklarning nuqda qo'llanish xususiyatlari.

Frazalogik birliklarda sinonimlik, omonimlik va antonimlik xususiyatlari.

14. Mavzu: Til va terminologiya.

Terminologiya tushunchasi. Terminologiyaning shakllanishi va taraqqiyoti masalalari.

V. Asosiy qism (Amaliy mashg'ulot):

15. **Mavzu:** Sohaviy terminlarning yasash xususiyatlari. Terminlarning morfologik, sintaktik va semantik usulda yasash xususiyatlari.
16. **Mavzu:** Morfologik vositalarning nutqda qo'llanish xususiyatlari. Morfologik
17. **Mavzu:** Gapda so'zlarning o'zaro munosabatga kirishish xususiyatlari. So'zlarning teng va tobe usulda bog'lanishi. So'z birkimlari.
18. **Mavzu:** Adabiy nutq va uning uslublari. So'zlashuv uslubi. Badiiy uslub. Ommabop uslub.
19. **Mavzu:** Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Rasmiy uslubning shakllanishi, xususiyatlari. Hujjatchilik va adabiy til me'yorlari.
20. **Mavzu:** Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
21. **Mavzu:** Sohada ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari. Maqola, tezis, taqriz, annotatsiya, rezyume matniga qo'yiladigan talablar.
22. **Mavzu:** Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari va ularda adabiy til me'yorlaridan foydalanish.
23. **Mavzu:** O'zbek tili leksikografiyasi. Umumiy va maxsus lug'atlar.
24. **Mavzu:** O'zbek tili leksikografiyasi. Akademik, ommabop va o'quv lug'atlari.
25. **Mavzu:** O'zbek tili leksikografiyasi. Sohaviy lug'atlar va ularda terminlarning qo'llanishi.
26. **Mavzu:** Nutqning kommunikativ sifatleri. Nutqning to'g'riligi va aniqliligi.
27. **Mavzu:** Nutqning kommunikativ sifatleri. Nutqning mantiqiyligi va sofligi.
28. **Mavzu:** Nutqning kommunikativ sifatleri. Nutqning boyligi va ifodaliligi.
29. **Mavzu:** Nutqning kommunikativ sifatleri. Nutqning boyligi va ifodaliligi.
30. **Mavzu:** Nutq tuzishda qo'shma gaplardan foydalanish. Murakkab gaplarning tuzilish xususiyatlari. Murakkab gaplarning uslubiy xususiyatlari.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

1. "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.
2. O'zbek tili – davlat tili.
3. Til va yozuv.
4. Til va yozuv masalalari: Grafika va orfoepiya.
5. O'zbektilining asosiy imlo qoidalari.
6. O'zbektilining asosiy imlo qoidalari.
7. Matnda tinish belgilarining qo'llanish me'yorlari.
8. Matnda tinish belgilarining qo'llanish me'yorlari.
9. Matnda tinish belgilarining qo'llanish me'yorlari.
10. So'zlardagi bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.
11. So'zlarning shakl munosabatiga ko'ra turlari.
12. So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.
13. Frazceologik birliklarning nutqda qo'llanish xususiyatlari.
14. Til va terminologiya.
15. Sohaviy terminlarning yasash xususiyatlari.
16. Morfologik vositalarning nutqda qo'llanish xususiyatlari.
17. Gapda so'zlarning o'zaro munosabatga kirishish xususiyatlari.
18. Adabiy nutq va uning uslublari. So'zlashuv uslubi. Badiiy uslub. Ommabop uslub.
19. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Rasmiy uslubning shakllanishi, xususiyatlari. Hujjatchilik va adabiy til me'yorlari.
20. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
21. Sohada ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari. Maqola, tezis, taqriz, annotatsiya, rezyume matniga qo'yiladigan talablar.
22. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari va ularda adabiy til me'yorlaridan foydalanish.
23. O'zbek tili leksikografiyasi. Umumiy va maxsus lug'atlar.
24. O'zbek tili leksikografiyasi. Akademik, ommabop va o'quv lug'atlari.
25. O'zbek tili leksikografiyasi. Sohaviy lug'atlar va ularda terminlarning qo'llanishi.
26. Nutqning kommunikativ sifatleri. Nutqning to'g'riligi va aniqliligi.
27. Nutqning kommunikativ sifatleri. Nutqning mantiqiyligi va sofligi.
28. Nutqning kommunikativ sifatleri. Nutqning boyligi va ifodaliligi.
29. Nutq tuzishda qo'shma gaplardan foydalanish. Qo'shma gaplarning turlari. Qo'shma gaplar sinonimiyasi.
30. Nutq tuzishda murakkab gaplardan foydalanish. Murakkab gaplarning tuzilish xususiyatlari. Murakkab gaplarning uslubiy xususiyatlari.

VII. Talabalar bilimni baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiriladi.

Talabalar bilimni O'zbekiston Respublikasi O'QMTVning 2018-yil 9-avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VIII. O'quv adabiyotlari hamda Internet axborot manbalari.

Asosiy adabiyot:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: «Talqin», 2005. - 272 b.
2. D.Lutfullayeva, R.Davlatova, M.Saparmiyozova Hozirgi o'zbek adabiy tili (o'quv qo'llanma). Toshkent, 2020.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Maxmudov N. Davlat tilida ish yuritish. Toshkent.2020.

Qo'shimcha adabiyot:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5850-son qarori.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli) - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
3. Sohaviy lug'atlar.

Axborot manbalari:

1. <http://sahifa.uz/uzbeksko-russkij-aspix-Uzbeksko-russkij-perevodchik>.
2. <http://library.ziyounet.uz/> - ta'lim portali

O'quv dasturi institut Uslubiy kengashi tomonidan ma'qullangan (Bayonnoma № <u>1</u> " <u>08</u> 2024-yil.
O'quv dasturi institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan (Bayonnoma № " " 2024-yil.
Fan (модуль) uchun mas'ul: Beginov O.T. - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.d.
Taqrizchilar: Jabborov X.J. - QarDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, f.f.d. Aminova Z.P. - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, p.f.n.

